



A N F A
PHARMACEUTICALS

VITALIT PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda, 60 dona – himoyalovchi plombali polietilen flakonlar yoki blisterda kadoklangan. (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

Tarkibi	Tabiiy birikmalari (100 gr.da)
Ituzum mevasi (Fructus Padus)	Shakar (4-6% fruktozalar, 5-6% glyukozalar, 0,1-0,6% saxarozalar), organik kislotalar (0,45-0,72%), pektinlar (1,0-1,1%), antotsianlar (6-8%), taninlar (do 15%), askorbin kislotasi, flavonoidlar, yod (2,7-3,4 mkg/kg).
Na‘matak mevasi (Rosa majalis)	Vitaminga boy navi: 4-14% askorbin kislotasi. Shakar 23,9%, shulardan invert shakari 18,5%, pektinlar 3,7-14%. Olma va limon kislotasi, kaliy tuzlari (23 mg%), natriy (5 mg%), kalsiy (26 mg%), magniy (8 mg%), fosfor (8 mg%), temir (11,5 mg%). Taninlar: kversetin, kempferol, izokversitrin - 4%. Taninlar 4,6%, antotsianlar - 45 mg%. Tokoferol (Ye vitamini) 170 mg%. Karotin, B2, K1 vitaminlar.
Gazanda o‘t bargi (Urtica dioica L.)	Askorbin kislotasi (do 269 mg%), vitamin K (42-45 mkg/g), pantoten kislotasi; karotinoidlar (b-karotin, ksantofill, violaksantin), glikozid urtitsin, taninlar va proteinlar, aminokislotalar: asparagin, glutamin; xolin, betain, fitonsidlar, kamed, temir tuzlari, kremniy va boshqalar.
Oltin ildiz (Rhodiola rosea L.)	Fenol birikmali fenolospirtlar va ularning glikozidlar, salidroqidlar (rodioqidlar) taxminan 1%, flavonoidlar (kversetin, giperoqid, kemferol va boshqalar.), antraglikozidlar, tanin guruxiga oid pirogallola, efir yog‘i, organik kislotalar, lipidlar, 10 turdagi mikroelementlar, marganets va boshqalar.
Toshcho‘p (Thymus serpyllum L.)	Fenol birikmali fenolospirtlar va ularning glikozidlar, salidroqidlar (rodioqidlar) taxminan 1%, flavonoidlar (kversetin, giperoqid, kemferol va boshqalar.), antraglikozidlar, tanin guruxiga oid pirogallola, efir yog‘i, organik kislotalar, lipidlar, 10 turdagi mikroelementlar, marganets va boshqalar.
Grekk yong‘og‘i (Júglans régia)	Pektat kalsiysi, taninlar, flavonoidlar, S, PP, E, B1 vitaminlar, A provitamini, inozit (B8 vitamini), karotin, yuglon, glikozidlar, kumarin, kofey va fenolkarbon kislotalar, inulin, aldeqidlar, alkaloidlar.

PREPARATNING TA‘SIRI

Vitalit tabiiy giyohlardan tashkil topgan vitaminlar kompleksiga ega preparat bo‘lib, vitaminlar, makro va mikro elementlar va bifidum bakteriyalardan tashkil topgan. Inson tanasida vitamin va minerallarga bo‘lgan tanqislikni to‘ldirib, antioksidantli ta‘sirga ega. Oshqozon-ichak mikroflorasini mo‘tadillashtiradi, organizmning turli hil kasalliklarga va atrof muhitning zararli ta‘siriga qarshi kurashish samaradorligini oshiradi. Shu ta‘silari tufayli preparatni immunitetni ko‘taruvchi va umumiy quvvatlantiruvchi vosita sifatida ham ishlatish tavsiya etiladi. Oshqozon-ichak traktining mo‘tadil ishlashini tiklaydi va unga yordam beradi. Astenik holatlarda, shamollash va infeksiyon kasalliklardan keyin tananing normal holatiga kelishiga va vitamin tanqisligini bartaraf etishda yordam beradi. A, S, R, K gipovitaminozlarining profilaktikasida ham kompleks terapiyasida qo‘llaniladi.

TAVSIYA ETILADI

Polivitamin, umumiy quvvatlantiruvchi vosita sifatida quyidagi kasalliklarning kompleks terapiyasida va profilaktikasida ishlatish tavsiya etiladi: - Gipertoniya; - ateroskleroz; - qalqonsimon bezlarning funksional buzilishlari; - qandli diabet; - past ishqorlanishga ega gastritda; - buyrak kasalliklarida; - revmatizm; - nurlanish va terining allergik kasalliklari (ekzema, dermatit, neyrodermit)da; - turli tabiatli qon ketishlarda; - gipo- va avitaminozda.

QO‘LLANILISHI

- Umumiy salomatlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, jismoniy va ruhiy farovonlikni oshiradi;
- Gipovitaminoz profilaktikasi, minerallar va mikroelementlar tanqisligida;
- Atrof muhitning inson organizimiga salbiy ta‘siriga nisbatan chidamlilikni oshiradi;
- Immun tizimini mustahkamlaydi, yuqumli kasalliklarga chalinishining oldini oladi;
- Metabolizmni (modda almashinuvini) kuchaytiradi;
- Organizmning stressga chidamliligini oshiradi va ruhiy tushkunlikning oldini oladi;
- Og‘ir metallar va boshqa zararli tuzlarni tanadan chiqishiga yordam beradi;
- Homiladorlik va laktatsiya davrida;
- Jismoniy va aqliy mehnat, va vitaminlarga nochor ovqatlar iste‘mol qilish oqibatida vujudga keladigan vitamin yetishmasligining oldini oladi;
- Chekish va spirtli ichimliklar iste‘mol qilishdan yetadigan zararlar va salbiy ta‘sirlarni kamaytiradi.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy komponentlariga yuqori sezuvchanlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Davolanish muddati va preparat miqdori, davolovchi shifokor tomonidan har bir bemorga yakka tartibda belgilanadi.

3 yoshdan 12 yoshgacha bolalarga	Kattalarga
1 tabletkadan kuniga 2-3 mahal ovqatlanish vaqtida	2 tabletkadan kuniga 3 mahal ovqatlanish vaqtida

Davolanish kursi 1–2 oyni tashkil etadi. Zarurat tug‘ilganda qayta davolash kursi belgilanadi

NOJO‘YA TA‘SIRI

Odatda nojo‘ya ta‘siri yuzaga kelmaydi, ko‘pgina holatlarda preparatning yaxshi ta‘siri kuzatilgan. Preparatning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik holatlarida allergik reaksiyalar, oshqozon-ichak traktida dispeptik buzilishlar kuzatilishi mumkin. Preparatga yuqori sezuvchanlik holati kuzatilsa, preparatni qo‘llashdan to‘xtash kerak.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar aniqlanmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri aniqlanmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2 S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.